

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning _2021 yil 11 yanvardagi №IXT-257 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati: 2026 yil

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/ bo'lim	Ichki kasalliklar
O'quv dastur nomi	"Revmatologiya"
O'qish turi	Ixtisoslashtirish
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Qayumov U.K., Musaeva Sh.Z., Saipova M.L.
Tsiklning umumiy soati	720 kredit

Tsiklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar

				
T.f.D., Ibragimov A.Yu.	T.f.D., professor Qayumov U.K.	T.f.n., dosent Kurbanova F.R.	T.f.n., dosent Xatamova D.T.	T.f.n., dosent Maksumova M.G.
				
T.f.n., dosent Saipova M.L.	T.f.n., dosent Musaeva Sh.Z.	T.f.n., dosent Alimov U.S.	PhD., assistant Usmanova D.U.	Assistent Ziyamuxamedova M.M.

Maqsad	Revmatologiya mutaxassisligi bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, vrachlarning yangi professional kompetentsiyalarini shakllantirish, davolash va diagnostika yo'nalishida qabul qilingan va o'zgartirish kiritilgan klinik tavsiyalar, klassifikatsiyalar diagnostika va davolash usullarini o'rgatish, yangiliklarga aloxida e'tibor qaratish, tanishtirish – amaldagi standartlar va bayonnomalar asosida diagnostika, davolash va
---------------	--

	profilaktik choralarini qo'llashni shakllantirish, davolash rejasini tuzish va zamonaviy davolash usullarini qo'llay olishlari maqsad qilingan.
Tsiklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	revmatologiya ixtisosligi buyicha birlamchi ixtisoslashtirish (Bi) huquqigao'zr SSVning (№170, №174, №202, №204, №210).me'yoriy hujjatlariga muvofiq stajirovka, klinik ordinatura, magistratura yoki boshlang'ich ixtisoslashuvda ushbu mutaxassislik olishni tasdiqlovchi hujjati bo'lgan malakali shifokorlar.
Tsikl vazifalari	- revmatologik kasalliklarni zamonaviy diagnostika usullarini, tashxislarni yangi klassifikasiyalar asosida shakllantirishni, klinik protokollarga kiritilgan o'zgarishlarni amaliyotga tatbiq eta olishni va yangilangan, takomillashgan davolash usullarini qo'llashni o'zlashtiradilar - revmatologik kasalliklarning etiologiya, patogenezi, tasnifi, klinik ko'rinishlari, asoratlari, kechishlari, oqibatlari, davolash va profilaktikasi bo'yicha bilimlarni chuqurlashtiradilar ; -bemorlarda anamnez yig'ish, turli a'zolar tizimlarini klinik tekshirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtiradilar va chuqurlashtiradilar; -kasalliklarning yangilangan standartlar asosida diagnostik mezonlarini aniqlay olishni o'zlashtiradilar va chuqurlashtiradilar; -yangi qabul qilingan immunologik laborator taxlillari va instrumental tekshiruvlar natijalarini interpretasiya qilishni o'zlashtiradilar va bor bilimlarini chuqurlashtiradilar; -qiyosiy taqqoslash va yakuniy diagnozni asoslashda yangi bilimlarni tatbiq qilishni o'zlashtiradilar; - kasalliklarning atipik kechishida, kam uchraydigan kasalliklarda tashxisni asoslashni, ular asoratlarini davolash printsiplarini qo'llash ko'nikmasini shakllantiradilar; - zamonaviy revmatik tadbirlarni joriy etish, kasallikning qaytalanishi va rivojlanishini oldini olish, bemorlarga o'z vaqtida revmatolog, kardiolog va kardiojarrox maslaxatiga yuborish uchun ko'rsatmalarni bilish va jarroxlik

	amaliyotini o'tkazgan bemorlarni kuzatuvini olib borish. -revmatologik kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni birlamchi va ikkilamchi profilaktikasini o'tkazishda zarur bo'lgan, kasbiy bilim va ko'nikmalarini egallash.
Tsikl tarkibi	Modul 1. Sog'liqni saqlash tizimida revmatologiya xizmatining tashkil etilishi. Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, me'yoriy xujjatlar. Revmatologiya asoslari. Revmatologik kasalliklarni tashxislash va davolashda yangicha yondashuv. Modul 2. Revmatik isitma. Surunkali yurak revmatik kasalligi. Revmatik yurak nuksonlari. Revmatologiyada aritmiyalar. Surunkali yurak etishmovchiligi. Interventsion yondashish. Modul 3. Bo'g'imlarning immun yallig'lanish kasalliklari. Jarroxlik amaliyotidagi yangiliklar. Modul 4. Biriktiruvchi to'qimaning sistem kasalliklari. Yangi biologik dori vositalarni qo'llanilishi. Modul 5. Seronegativ spondiloartritlar. Immunologik tekshiruv usullarida yangiliklar. Modul 6. Mikrokrustallik artritlar. Bo'g'imlarning metabolik kasalliklari. Modul 7. Sistem vaskulitlar. Davolashda yangicha yondashuv. Modul 8. Revmatik kasalliklar asoratlari. Qandli diabet. Steroid diabet. Anemiyalar. Revmatik kasalliklar profilaktikasi va dispanserizatsiyasi.
O'qish bazalari 1. Ibn Sino nomli 1 shahar klinik shifoxonasi	2.TXKMRM ko'p tarmoqli shifoxonasi  

Simulyasion asbob/uskunalar

